

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ASHUROV ZAFARJON RAXMANKULOVICH**

**OLIV TA‘LIM TIZIMIDA CHET TILLARNI O‘QITISHNING KUNDUZGI  
VA MASOFAVIY SHAKLLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Pedagogical Sciences**

**Ashurov Zafarjon Raxmankulovich**

Oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitishning kunduzgi va masofaviy shakllarida  
axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ..... 3

**Ашуров Зафаржон Рахманкулович**

Методика использования информационных технологий в обучении  
иностранным языкам студентов вузов очного и дистанционного формата ... 27

**Ashurov Zafarjon Rakhmankulovich**

Methodology of the use of information technologies in the offline and online forms  
of teaching foreign languages in the higher education system ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 58

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ASHUROV ZAFARJON RAXMANKULOVICH**

**OLIY TA’LIM TIZIMIDA CHET TILLARNI O‘QITISHNING KUNDUZGI  
VA MASOFAVIY SHAKLLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.Phd/Ped3093 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://www.uzswlu.uz>) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Lutfullayev Mahmud Xasanovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Kushiyeva Nodira Xabibjonovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashining 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100011 Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li 21 uy. Tel.: +99871 2301291, faks +99871 2301291; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li 21 uy. Tel.: +99871 2301291, faks +99871 2301291.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**L.T.Axmedova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**A.B.Raxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**K.Sh.Muradkasimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, fan va texnika sohaslarining keng miqyosda rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim sohasida o'quv jarayonini takomillashtirish va bitiruvchilarni tayyorlash sifatini oshirishga yuqori talablar qo'yilmoqda. Dunyoda chet tillarni o'qitishning turli shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish zarurati mazkur tadqiqot mavzusini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tili nafaqat muloqot vositasi, balki bilim olishda ham talabalar uchun ilmiy ma'lumot olishning asosiy vositasiga hamda mutaxassisning fan, ishlab chiqarish va jamiyatga faol jalb qilish vositasiga aylanmoqda.

Dunyoda chet tillarini o'rganishning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqish, chet tilini o'qitishning yangi usul va yondashuvlari takomillashtirilib, o'qitishning yangi shakl va uslublari amaliyotga joriy etilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlarida fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari, nazariya va o'quv amaliyoti asosida o'qitishning uslub va vositalarini takomillashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari, o'qitish nazariyasi va amaliyoti asosida AQSH, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish metodlari bo'yicha Janubiy Xitoy texnologiya universiteti, Voronej davlat universiteti, ta'limda axborot texnologiyalari YUNESKO institutlari va boshqa oliy ta'lim muassasalarida ko'plab ishlar olib borilmoqda. OTMlarning o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarni axborotni idrok etishning yangi usullari bilan boyitadi, bilim olish jarayonini tezlashtiradi, ta'lim sifati hamda kasbiy tayyorgarligini oshirmoqda.

Mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimida bugungi kunda jamiyat va ta'lim taraqqiyotida jiddiy intellektual va ma'naviy modernizatsiyani amalga oshirish zarur. Ushbu dissertatsiya ishi umumiy va maxsus metodologiyaga asoslangan bo'lib, uslubiy asosi chet tillarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va masofaviy o'qitishning muammoli masalalari yechimiga tayanmoqda. Prezidentimiz ham chet tillarini o'rgatishga keng e'tibor qaratmoqda va quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Bundan buyon bitiruvchilar kamida ikkita chet tilini mukammal bilishi kerak. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim"<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishda AT vositalaridan foydalanishni takomillashtirish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Mavzuning dolzarbligi chet tillarini o'qitishga qaratilgan kam sonli ilmiy tadqiqotlar, AT vositalaridan foydalanish usullari bo'yicha nazariy va amaliy ishlarning yetarli emasligi bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni o'tkazilgan chet tillarini o'rganish masalasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://www.kun.uz/kr/news/2021/05/06/prezident-bundan-buyon-bitiruvchilar-kamida-ikki-chet-tilini-mukammal-bilishi-shart>. Murojaat sanasi: 06.09.2023.

Ayni paytda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni AT-industriyasi bilan integratsiyalash borasida katta yutuqlarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-sonli "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va axborot texnologiyalari sohasi bilan integratsiyalashuvini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-sonli qaroriga asosan asosiy yo'nalishlar qatoriga axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim tizimini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni AT sohasi bilan integratsiyalash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-sonli qarorida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-357-sonli qarorida 2023-yil yakuniga qadar masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va axborot texnologiyalari sohasiga oid bir qator boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi "Ta'limni axborotlashtirish, jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan, bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashga qo'yilgan talablar, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish hamda AKT imkoniyatlaridan samarali foydalanishda metodik va tashkiliy aspektlari"ga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish muammolari, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik masalalari mamlakatimiz olimlari R.X.Alimov, L.T.Axmedova, Ye.A.Lagay, U.U.Jumanazarov, J.J.Jalolov, O.X.Azamatov, I.M.Tuxtasinov, U.T.Xaytmatov, S.Ye.Nizomxonov, U.Sh.Begimqulov, F.X.Sidikova, M.S.Ibragimova, N.K.Xatamova, M.N.Mirzayeva, Z.M.Abduraxmonova, R.B.Tursunov, B.A.Begalov, I.Ye.Jukovskaya va boshqalar<sup>2</sup> o'z tadqiqotlarida, ta'limda axborot

---

<sup>2</sup> Alimov R.H., Azamatov O.X., Xaytmatov U.T. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik, "Iqtisodiyot" bosmaxonasi 2019. – 158 b.; Begimqulov U.Sh. Ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining masofaviy malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida. Pedagogik ta'lim, TDPU No1, 2006. – B. 16-19.; Axmedova L.T., Lagay E.A. Рус тили ва адабиётни ўқитишда замонавий технологиялар. – Тошкент, фан ва технологиялар,

texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy masalalariga asosiy e'tibor qaratishgan, lekin chet tillarini an'anaviy va masofaviy o'qitish shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodlari haqidagi g'oya ilgari surilmagan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida T.I.Golubeva, S.O.Repin, I.G.Zaxarova, Ye.S.Polata, M.V.Moiseyeva, A.P.Panfilova, A.V.Zubova, I.I.Zubova, D.P.Tevsa, V.N.Podkovyrova, Apolskix, M.V.Krasilnikova, S.T. Valiyeva, A.A.Pegova, Ye.G.Mast, V.A.Yeremenko, A.A.Andreyeva, V.G.Klimova, M.A.Larionova, B.Stensakera, P.Maassena, M.Borgana, M.Oftebro, B.Karseta va boshqalarning tadqiqotlarida<sup>3</sup> va boshqalarning tadqiqotlarini ajratish mumkin.

Mahalliy olimlarimiz I.M.Tuxtasinov, Ye.K.Musayeva, Z.X.Rasulova, D.Qodiraliyeva, F.B.Qilicheva, M.R.Otaboyeva, Z.M.Abdurahmonov va boshqalarning<sup>4</sup> bizning ilmiy ishimiz mavzusida turli maqola va nashrlari mavjud,

---

2016. – 296 b.; Жуманазаров У.У. Таълимни рақамлаштириш муҳиtida бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси 2021, Жиззах. – 352 б.; Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.; Nizomxonov S.E. O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlantirish istiqbollari. Yosh olim jurnali, – No 11 (46), 2012. – B. 464-464.; Sidikova F.X., O'zbekiston Respublikasida chet tili ta'limini axborotlashtirish: bosqichlari va natijalari. – REU Toshkent filiali, "Plexanovets.uz", 2021. – B. 112-119.; Ibragimova M.S. Masofaviy ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash. Fan, madaniyat, ta'lim olami. – No 6 (73), ISSN 1991-54972018. – B.188-194.; Xatamova N.Q., M.N.Mirzayeva. Ingliz tili darslarida qo'llanmagan interfaol usullar. Uslubiy qo'llanma. – Navoiy, 2006. – 40 b.; Абдурахманова З.М. Информационные технологии в образовании: технология дистанционного обучения. Международный студенческий форум, 2015. – С. 1-6.; Tursunov R.B. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llash tendensiyalari. Ta'lim fanlaridagi akademik tadqiqotlar, jild 1, 2020. – B. 324-331.; Begalov B.A., Jukovskaya I.E. Axborot jamiyatining iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ta'sirining metodologik jihatlar. – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 135 b.

<sup>3</sup> Golubeva T.I., Repina S.O. Chet tilini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash. Darslik. – Orenburg: Davlat ta'lim muassasasi, 2004. – 167 b.; Zaxarova I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: talabalar uchun darslik. – M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2010. – 338 b.; Varshauer M. Kompyuter yordamida hamkorlikda o'qitish: nazariya va amaliyot. Zamonaviy tillar jurnali, 81, 1997. – B. 470-481.; Polat E.S., Moiseeva M.V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari: Pedagogik talabalar uchun darslik. – M.: Akademiya, 2000. – 372 b.; Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol ta'lim: Darslik. – M.: Akademiya, 2013. – 208 b.; Zubov A.V., Zubov I.I. Chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: darslik. – M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2009. – 144 b.; Tevs D.P., Podkovyrova V.N., Apolskix E.I., Afonina M.V. O'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: o'quv qo'llanma. – Barnaul: BSPU, 2006. – 172 b.; Krasilnikova V.A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: darslik – M.: "Pedagogika uyi" MChJ, 2006. – 193 b.; Valiev S.T. Ingliz tilini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlari, muassisahoi tahsiloti olii Jumhurii Tojikiston. dissertatsiya avtoreferati. – Dushanbe, 2023. – 65 b.; Pegov A.A., Mast E.G. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (Qisqacha ma'ruzalar kursi), 2010. – 71 b.; Efremenko V.A. Chet tili darslarida axborot texnologiyalarini qo'llash. Maktabda chet tillari. – M., No 8., 2007. – B. 18-21.; Andreev A.A. Oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limning didaktik asoslari: Diss. Ph.D. ped. Sci. – M.: 1999. – 289 b.; Klimov V.G. Ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: muammolar, amalga oshirish usullari, istiqbollari. – Perm: "Kitob nashriyoti" OAJ nashriyoti, 2015. – 136 b.; Ларионова М.А. Использование информационных технологий и развитие компетенций в дистанционном обучении. Вестник Марийского государственного университета, 2009. – С. 88-90.

<sup>4</sup> Tuxtasinov I.M. Oliy ta'lim muassasalarida italyan tilini masofaviy va an'anaviy shaklda o'qitish metodlari muammosiga zamonaviy qarashlar. Jamiyat va innovatsiyalar. – No 2, 2021. – B. 111-118.; Musaeva E. K. Chet tili darslarida AKTdan foydalanish. Qurilish va ta'lim jurnali, – No 4.1, 2023. – B. 202-207.; Rasulova Z.H. Chet tillarini o'qitishda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlarini tadbiq etish. "Ko'p tillilik muhitida xorijiy tillarni rivojlantirishninginnovatsion va integrativ muammolari", Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024. – B. 281-284.; Кодиралиева Д., Арустамян Ү. Восприятие и барьеры на пути интеграции ИКТ для изучения языка и преподавания в аудиториях EFL. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2), 2024. – С. 308-311.; Qilicheva F.B. Ta'lim sohasida multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Ilmiy jurnal, 3-son (16), 2017. – B. 44-45.; Абдурахманова З.М. Информационные технологии в образовании: технология дистанционного обучения. Международный студенческий форум, 2015. – С. 1-6.; Otaboeva M.R. Chet tilini o'qitishda

lekin bugungi kunga qadar O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitishning kunduzgi va masofaviy shakllarida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish muammosi uslubiy jihatdan o‘rganilmagan, bu esa mazkur dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Chet tillarni o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish” ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitishning kunduzgi va masofaviy shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

til yo‘nalishi mavjud oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini an’anaviy va masofaviy shakllarda o‘qitish natijalarini baholash, axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflash;

chet tillarini an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarida o‘qitishda qo‘llaniladigan maxsus dasturlarni tahlil qilish va ulardan foydalanishning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash;

kelgusida ta’limni takomillashtirish bo‘yicha yaratilgan yangi elektron o‘quv ilovalarini va ulardan chet tillarni o‘qitishning integral ko‘nikmalar doirasida foydalanish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta’lim tizimida an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarida chet tillarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan optimal foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov tarzida isbotlash.

**Tadqiqot obyekti** xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha 2-kurs talabalariga chet tillarni o‘qitishning kunduzgi va masofaviy shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi takomillashtirish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitishning kunduzgi va masofaviy shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, metodlari va vositalaridan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu tadqiqot maqsadiga erishish va belgilangan muammolarni hal qilish uchun analitik usul (tahlillarni o‘tkazish), kompyuterli modellashtirish (tadqiqot uchun kompyuter modellari va simulyatsiyalarni yaratish), statistik usul (miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish), qiyosiy tahlil (turli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish natijalari va samaradorligini taqqoslash) usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirishda LMS platformalarining imkoniyatlari TAIM metodik modeli doirasida modul asosida ishlab chiqilgan bosqichli blok-sxema tarkibining reflektiv-monitoring komponentini differensial ta’lim konsepsiyasiga moslashtirish orqali ta’limning gibrid AP4/VP formatida raqamli muhitda faollashtirish zaruratiga ko‘ra dalillangan;

masofaviy ta'lim shakllarida interaktiv mashg'ulotlar va avtomatlashtirilgan teskari aloqalarni uzviylashtiruvchi raqamli "IT-WORKFLOWS" asosida shakllangan DFA (Digital Flow Alignment) mexanizmining transformatsiya xususiyatlari o'qitish jarayonining texnologik dinamikasi, foydalanuvchi ishtiroki va funksional segmentlar kesimiga ustuvorlik berish orqali aniqlangan;

xorijiy tillarni an'anaviy va masofaviy ta'lim orqali o'qitishda qo'llaniladigan LMS+AMS funksiyalariga ega raqamli vositalarning samaradorligi EduLangIT axborot tizimidan foydalanish metodikasiga ta'lim jarayonining DDD (Data-Driven Didactics) komponentinining tayyorlov, integratsiyalashgan qo'llash, oraliq baholash va yakuniy tahlil tarkibiy bosqichlarini vertikal integratsiya qilish asosida aniqlangan;

til kompetensiyasini bosqichma-bosqich "Starter-Agent"dan "Strategic-Performer" gacha to'rt bosqichda (SA→PB→AU→SP) rivojlantirishga qaratilgan EduLangIT elektron dasturiy vositasi interaktiv monitoringni yo'lga qo'yish va baholash mezonlari bilan koordinatsiyalangan kognitiv tahlil mexanizmlari asosida raqamli samaradorlikni ta'minlash ehtiyojiga ko'ra ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

chet tillarni o'qitishda <https://classroom.google.com/> platformasida yaratilgan veb-ilovadan foydalanishning uslub va yondashuvlari, axborot texnologiyalarini tanlash va ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va taklif yetildi;

xorijiy tillarni o'qitishda Google classroom veb-ilovasi (onlayn o'qitish) va EduLangIT (an'anaviy o'qitish) dasturidan foydalanish samaradorligi talabalarning chet tilini bilish darajasiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar, talabalar motivatsiyasi, muloqot sifati va ta'lim muvaffaqiyatining ko'rsatkichlari asosida isbotlandi.

**Tadqiqot natijalarning ishonchligi** tadqiqot obyektiga yondashuv va qo'llanilgan tahlil usullarining tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tahlilga tortilgan misollarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida foydalanilgan, ilmiy asoslangan ma'lumotlar, taqdim qilingan metodlar, texnologiyalar hamda tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dasturlar, mashqlar tizimi va tavsiyalardan o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlashda, bo'lajak mutaxassislarining chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

xorijiy tillarni an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarida o'qitishda qo'llaniladigan Google classroom veb ilovasi va EduLangIT dasturlaridan keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

tadqiqot materiallaridan til yo'nalishi mavjud oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyot yo'nalishidagi mavjud "Og'zaki nutq amaliyoti" fanidan amaliy ishlanmalar yaratishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda ingliz tilini o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, u an'anaviy va masofaviy ta'limda

talabalarga ogʻzaki muloqot jarayonini modellashtirish hamda takomillashtirish imkonini beradi;

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy taʼlim tizimida xorijiy tillarni anʼanaviy va masofaviy oʻqitish shakllarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirishda LMS platformalarining imkoniyatlari TAIM metodik modeli doirasida modul asosida ishlab chiqilgan bosqichli blok-sxema tarkibining reflektiv-monitoring komponentini differensial taʼlim konsepsiyasiga moslashtirish orqali taʼlimning gibrid AP4/VP formatida raqamli muhitda faollashtirish zaruratiga koʻra dalillanganligi borasidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi Erasmus + dasturi asosida amalga oshirilgan 585845-YEPP-1-2017-1-yes-YEPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Markaziy Osiyo universitetlarida hisoblash lingvistikasi” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 13-martdagi 155/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Natijada chet tilida ogʻzaki nutqni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligiga erishilgan;

masofaviy taʼlim shakllarida interaktiv mashgʻulotlar va avtomatlashtirilgan testkari aloqalarni uzviylashtiruvchi raqamli “IT-WORKFLOWS” asosida shakllangan DFA (Digital Flow Alignment) mexanizmining transformatsiya xususiyatlari oʻqitish jarayonining texnologik dinamikasi, foydalanuvchi ishtiroki va funksional segmentlar kesimiga ustuvorlik berish orqali aniqlanganligi borasidagi tavsiyalar Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi Tempus dasturi asosida amalga oshirilgan 544161-TEMPUS-1-2013-1-UKTEMPUS-JPCR Aston University DeTEL: “Yevropa tillarini oʻqitishni rivojlantirish: tilni modernizatsiya qilish boʻyicha oʻqitish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-martdagi 156/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Natijada chet tilini oʻqitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan anʼanaviy va masofaviy oʻqitish shakllarida foydalanish parametrlari ishlab chiqilgan;

xorijiy tillarni anʼanaviy va masofaviy taʼlim orqali oʻqitishda qoʻllaniladigan LMS+AMS funksiyalariga ega raqamli vositalarning samaradorligi EduLangIT axborot tizimidan foydalanish metodikasiga taʼlim jarayonining DDD (Data-Driven Didactics) komponentinining tayyorlov, integratsiyalashgan qoʻllash, oraliq baholash va yakuniy tahlil tarkibiy bosqichlarini vertikal integratsiya qilish asosida aniqlanganiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2014-2015-yillarda amalga oshirilgan 204-4-5 raqamli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va oʻquv jarayoniga ingliz mutaxassisliklarini joriy etish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 7-fevraldagi 276/02-sonli maʼlumotnomasi). Natijada xorijiy tillarni anʼanaviy va masofaviy shakllarda oʻqitish jarayonida interfaol, innovatsion usullar va aloqa vositalaridan foydalanib, oʻquv jarayonining sifatini oshirishga erishilgan;

til kompetensiyasini bosqichma-bosqich “Starter-Agent”dan “Strategic-Performer”gacha toʻrt bosqichda (SA→PB→AU→SP) rivojlantirishga qaratilgan

EduLangIT elektron dasturiy vositasi interaktiv monitoringni yo'lga qo'yish va baholash mezonlari bilan koordinatsiyalangan kognitiv tahlil mexanizmlari asosida raqamli samaradorlikni ta'minlash ehtiyojiga ko'ra ishlab chiqilganligi xususidagi amaliy tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi "Samarqand radiosi"ning 2023-yil 29-noyabrda efirga uzatilgan ko'rsatuv ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-apreldagi 01-07/ 64-sonli guvohnomasi). Natijada oliy ta'lim tizimida chet tillarni an'anaviy va masofaviy o'qitish shakllari doirasida yaratilgan Google classroom va EduLangIT yangi elektron o'quv ilovalardan foydalanish orqali ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusining asosiy mazmuni jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlarda o'z aksini topgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 5 ta maqola xorijiy jurnallarda, 2 ta respublika. Shuningdek, 1 ta lug'at ham chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Kirish, uchta bob va xulosa 138 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy etish, asosiy natijalarni nashr etish va ishning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Tillarni o'rganish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni"** nomli birinchi bobida tillarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarini (AT) joriy etish bosqichlari, O'zbekistonda o'quv jarayonini axborotlashtirish va chet tillarni o'qitishda ATdan foydalanishning pedagogik jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili o'tkazilgan.

**"Tillarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichlari"** deb nomlangan birinchi paragrafida chet tilini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yordam berishi, talaba va o'qituvchi o'rtasida faol pedagogik hamkorlik va o'zaro ta'sirning ta'minlanishi, darsni qiziqarli o'tishi va talaba xotirasida o'tgan mavzularni uzoq muddatda saqlashga yordam berishi haqida so'z yuritilgan.

Mark Vorsher o'zining "Chet tillarni o'qitishda kompyuterlardan foydalanish" maqolasida chet tillarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning uchta asosiy bosqichini belgilab berdi. Ushbu yondashuv ingliz tilida CALL yoki Computer Assisted Language Learning ning deb nomlanadi, ya'ni kompyuter yordamida chet tillarini o'rganish. Har bir bosqich

texnologiyaning ma'lum bir rivojlanish darajasi, shuningdek tegishli pedagogik usul bilan tavsiflanadi<sup>5</sup>. Bu bosqichlar – bixeyvorist (tizimli yondashib o'rganish), kommunikativ va integrallashgan.

Bu borada jahon va yurtimiz oliy o'quv yurtlari muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda, ularni I.G.Zaxarova o'zining "Ta'limda axborot texnologiyalari" asarida ta'kidlagan<sup>6</sup>. Ular quyidagicha:

Ta'lim mazmunini belgilaydigan ma'lumotlarning o'sishi cheklangan o'qitish vaqtiga mos kelmaydi;

OTMLar – "An'analar va ilmiy merosning asosiy omborlaridan biri" rolini o'ynaydi, bu universitetlar ilm-fanning oldingi saflarida bo'lishi va o'qitishda uning eng yangi yutuqlaridan foydalanishi kerakligiga zid keladi;

Hozirgi vaqtda o'qituvchi chet tilini intensiv ravishda o'qitish va turli darajadagi talabalarni tarjima qilishga imkon beradigan zamonaviy o'quv vositalari va texnologiyalariga ega bo'lishi muhimdir. Elektron ommaviy axborot vositalarida o'quv adabiyoti barcha talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv jarayonining qulay elementi bo'lishi kerak.

**"O'zbekistonda chet tillarni o'qitishni axborotlashtirish"** deb nomlangan ikkinchi paragrafida so'nggi yillarda jamiyatni axborotlashtirish jarayonlari ta'siri ostida ta'lim tizimi sezilarli o'zgarishlarga uchraganligi aytilgan. Axborot texnologiyalaridan foydalanish inqirozni bartaraf etish va bunda ta'lim tizimini axborot jamiyatini shakllantirishning zamonaviy sharoitlariga moslashtirishda asosiy omil bo'ldi. Kasbiy ta'lim faoliyatida kompyuterlar, ma'lumotlar bazalari, Internet-resurslar, elektron o'quv materiallari, avtomatlashtirilgan sinov va diagnostika tizimlari va boshqa axborot texnologiyalari vositalari tobora keng tarqalmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish – bu ma'muriyat va o'qituvchilar tomonidan tizimli va manfaatdor harakatlarni talab qiladigan uzoq muddatli, uzluksiz va izchil jarayon, zaif moddiy-texnik baza sharoitida ta'limni axborotlashtirishni AKT sohasidagi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidan boshlash kerak, an'anaviy darslarni masofadan kirish imkoniyati bilan birlashtirgan gibrid (aralash, kombinatsiyalangan) o'qitish texnologiyalarida xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida elektron ta'lim resurslariga ko'proq mos keladi (1-rasm):



**1-rasm. Asosiy didaktik printsiplar**

<sup>5</sup> Warschauer M. Computer-Mediated Collaborative Learning: Theory and Practice. Modern Language Journal, 81, 1997. – С. 470-481.

<sup>6</sup> Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 192 с.

O‘zbekistonda ta’limni axborotlashtirish strategiyasi mavjud bo‘lib, uning maqsadi ta’lim sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Elektron texnologiyalar va elektron resurslardan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ta’lim jarayonida foydalaniladigan elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishdir. Bu o‘qituvchilarga darslarni o‘tkazishda turli materiallardan foydalanish, o‘quvchilarga esa bilim va ko‘nikmalarni yanada samarali va qiziqarli o‘zlashtirish imkonini beradi.

**“Chet tilining integrallashgan ko‘nikmalarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik jihatlari”** deb nomlangan uchinchi paragrafda maqsad va vazifalarga qarab turli shakl va sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ATning ahamiyati va imkoniyatlari yoritilgan. Ularning roli ortib bormoqda va ular ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Aralash sinflarda chet tillarini o‘rgatish o‘qituvchilardan katta kuch talab qiladi. Zero, bu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni katta. Shu sababli o‘qituvchilar doimo harakatda bo‘lishi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rag‘batlantirish, kengaytirish uchun yangi va qiziqarli o‘qitish usullarini izlashi kerak, jumladan:

o‘quvchilarning sharoit va ehtiyojlariga qarab materiallarni moslashtira olish;  
internetda asl kontentga kirishni taklif qilish orqali IT-ga tezkor va kundalik yangiliklarga javob berish va ulardan foydalanish imkoniyatini berish;

asosiy ko‘nikmalarni birgalikda ishlatish qobiliyati (matn va tasvirlar, audio va video klip);

talabalarning faolligini oshiradigan ko‘proq qiziqarli va kamroq an’anaviy ma’ruzalarni taqdim etish;

darsning ma’lum bir qismiga (talaffuz, lug‘at) e’tiborni qaratish uchun axborot texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish.

Dissertatsiya ishimizning **“Axborot texnologiyalari asosida o‘quvchilarga integral ko‘nikmalarni o‘rgatish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida til ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda axborot texnologiyalarining o‘rni, til o‘rgatishda onlayn texnologiyalardan foydalanish, masofaviy ta’lim formatida AT, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan.

Bobning birinchi paragrafi **“Til ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish”** deb nomlanadi. Talabalarga ta’lim berish jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifasi til kompetensiyasini shakllantirishdir. Interfaol ta’lim sohasi va kompetensiyaga yo‘naltirilgan tizimlarni yangilash sharoitida til kompetensiyasini shakllantirishda axborot texnologiyalari katta rol o‘ynaydi.

Lingvistik kompetensiyada chet tili tizimining fonetik, grafik, leksik, morfologik va sintaktik jihatlarni, shu jumladan, fonologik, morfologik usullardan foydalangan holda o‘zgartirilgan chuqur tuzilmalarni qurish asosida tilning tuzilishi va faoliyati haqidagi qoidalarni bilish kerak. Sintaktik va semantik qoidalarni nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarga aylantirish jarayoniga o‘tkazish va bu qoidalarni nutqda qo‘llash, shuningdek, ularni boshqalar nutqida

tushuna olishi kerak. Og‘zaki muloqot amalga oshiriladigan kutilmagan, o‘ziga xos, doimiy o‘zgaruvchan vaziyatlarga qo‘llash jarayonida o‘z fikrlarini ifodalash uchun o‘quv materialidan ijodiy foydalanish qobiliyatiga ega.

“Chet tilini o‘rgatishda til ko‘nikmalarini takomillashtirish bilan birga onlayn texnologiyalardan foydalanish” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafda ma‘lum harakatlar ketma-ketligini ta‘minlovchi onlayn texnologiyalardan foydalaniladi:

- muammoni aniqlash, tadqiqot maqsadlari;
- o‘z tadqiqoti uchun gipotezani ilgari surish;
- tadqiqot usullarini muhokama qilish;
- yakuniy natijalarni rasmiylashtirish usullarini muhokama qilish (taqdimotlar, himoyalalar, ijodiy hisobotlar, namoyishlar va boshqalar);
- olingan ma‘lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish va tahlil qilish;
- xulosalar chiqarish, natijalarni tuzish, ularni taqdim etish;
- xulosalar, yangi tadqiqot muammolarini ilgari surish.

Ta‘limda internetdan foydalanish bilan uydan chiqmasdan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beruvchi onlayn kurslar, vebinarlar va ommaviy ochiq onlayn kurslar (OOOK) kabi yangi o‘qitish shakllari paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, Internet tufayli ilgari ko‘pchilik uchun mavjud bo‘lmagan turli xil elektron kutubxonalar, ma‘lumotlar bazalari va boshqa axborot resurslari mavjud bo‘ldi.

OOOK ning asosiy afzalliklari:

bepul ta‘lim. OOOKlar hamma uchun mavjud va o‘quv to‘lovlarini talab qilmaydi. Bu odamlarga moliyaviy xarajatlarsiz sifatli ta‘lim olish imkonini beradi; moslashuvchanlik va qulaylik. OOOK istalgan vaqtda, istalgan joyda mavjud. Talabalar geografik joylashuvi va jadvalidan qat‘i nazar, o‘zlari uchun qulay rejimda o‘qishlari mumkin;

kurslarning keng assortimenti. OOOK turli yoshdagi va kasbdagi talabalarni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan turli mavzularda ko‘plab kurslarni taklif qiladi;

interaktivlik va teskari aloqa. Ko‘pgina OOOK interaktiv topshiriqlar va uy vazifalarini, shuningdek, o‘qituvchilar va boshqa talabalarning fikr-mulohazalarini taklif qiladi;

sertifikatlash. Ba‘zi OOOK kursni tugatgandan so‘ng sertifikat olish imkoniyatini taklif qiladi, bu ish qidirishda yoki o‘qishni davom ettirishda foydali bo‘lishi mumkin.


Onlayn kurslar sizga ta‘lim sur‘ati va mazmunini mustaqil tanlash imkoniyatini beradi. Bu shuni anglatadiki, talaba materiallarni o‘z tezligida, o‘z vaqtida o‘rganishi va o‘zi uchun qiziqarli yoki tegishli mavzularga e‘tibor qaratishi mumkin.

Raqamli ta‘lim platformalarining ortib borayotgan roli va ta‘limni shaxsiylashtirish zaruratini inobatga olgan holda, ushbu tadqiqot doirasida LMS platformalari imkoniyatlarini modulli bosqichli o‘qitish texnologiyasi bilan uyg‘unlashtirgan innovatsion metodik model ishlab chiqildi.

TAIM–LMS–AP4/VP modelining nazariy asoslari reflektiv yondashuv, differensial o‘qitish va raqamli muhitda avtonom ta‘lim faoliyatini

integratsiyalashgan holda aks ettiruvchi zamonaviy didaktik tamoyillarga tayanadi. Ushbu modelni shakllantirishda T.V. Tkachuk va B. Holmbergning ilmiy qarashlari metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Taklif etilayotgan yondashuvni vizual ifodalash uchun quyida raqamli muhitda differensial va reflektiv o‘qitishga moslashtirilgan TAIM (Technological–Andragogical–Integrative–Modular) modelining gibrid (AP4/VP) formatdagi amalga oshirilishini aks ettiruvchi blok-sxematik tuzilma keltirilgan (2-rasm):



**2-rasm. TAIM-LMS asosidagi AP4/VP gibrid formatning blok-sxemasi**

“Masofaviy ta’lim sharoitida axborot texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklari” deb nomlangan uchinchi paragrafda ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish ancha murakkab jarayon ekanligi ta’kidlangan, chunki

o'qituvchilar muayyan fan bo'yicha o'zlarining pedagogik maqsadlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi va mavzuni eng samarali tarzda taqdim etilishi mumkin bo'lgan raqamli platformaning barcha imkoniyatlarini bilishi kerak. O'qituvchining raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligi, uning sharoitga tezda moslasha olish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

So'nggi o'n yil ichida kollej va universitetlarda masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'qitiladigan kurslar va dasturlar sezilarli darajada oshdi.

Masofaviy ta'limning ilmiy tahlili uni quyidagi asosiy pozitsiyalardan ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi:

- hodisaning genezisi;
- uning rivojlanishi;
- hodisaning transformatsiyasi;
- uning mavjudligi uchun shart-sharoitlarning borligi yoki yo'qligi;
- masofaviy ta'lim fenomenining kelib chiqishini bir necha asrlar davomida kuzatish mumkin.

Masofaviy ta'lim usullarini qo'llashning dastlabki misollarini qadimgi davrlarda, o'quvchilar o'z ustozidan xatlar orqali bilim olganlarida ko'rish mumkin. O'rta asrlarda qirolik kutubxonalarida kitoblardan foydalanish imkoniyatini ta'minlagan, bu ham masofaviy ta'limning bir turi yedi.

Bugungi kunda masofaviy ta'lim ixtisoslashtirilgan onlayn ta'lim platformalari orqali ham, o'z kurslarining onlayn versiyalarini taqdim etuvchi ta'lim muassasalari orqali ham amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik va biznes uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlari yaratildi, bu esa ish joyida ta'lim olish va malaka oshirish imkonini beradi.


Masofaviy ta'lim yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va talabalarning o'zgaruvchan ehtiyojlari bilan o'zgarishlarni davom ettirmoqda. Masofaviy ta'limning zamonaviy tendensiyalari qator muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oladi:

Moslashuvchanlik, chunki talabalar o'qishlari uchun qulay vaqt va joyni tanlashlari, o'qitish formati va sur'atlarini individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirishlari mumkin.

Interaktivlik, masofaviy ta'limni an'anaviy ta'limga o'xshash jarayonga aylantirdi. Zamonaviy platformalar yordamida onlayn munozaralar o'tkazish, savollar berish va fikr-mulohazalarni olish mumkin bo'ldi.

Masofaviy ta'limning internet tarmog'i orqali foydalanish imkoniyati kengaydi. U juda ko'p odamlar, jumladan, chekka va borish qiyin bo'lgan hududlarda yashovchilar uchun mavjud bo'ldi. Shuningdek, masofaviy ta'lim mobil qurilmalar yordamida istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanildi. Zamonaviy onlayn ta'lim platformalari sezgir interfeys va mobil ilovalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tendensiyalar kontekstida masofaviy ta'limning yangi bosqichi sifatida ta'lim jarayonini raqamli boshqarishga oid algoritmik modellarni tatbiq etish yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, olib borilgan tadqiqot doirasida "IT-WORKFLOWS" tizimi asosida ishlab chiqilgan DFA (Digital Flow Alignment) mexanizmidan foydalanish samaradorligi asoslab berildi.



3-rasm. DFA (Digital Flow Alignment) mexanizmi

“IT-WORKFLOWS” (axborot texnologiyalari asosidagi ish jarayonlari) – bu raqamli vositalar asosida ta’limiy jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarishga xizmat qiluvchi tuzilmaviy tizimdir. Ushbu tizim bir-biri bilan bog‘langan amallar, platformalar va dasturiy echimlar majmuasi bo‘lib, moslashuvchan, kuzatib boriladigan va samarali o‘quv muhitini tashkil etishga xizmat qiladi.

“Ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarida axborot texnologiyalarini joriy etish natijalari” deb nomlangan uchinchi bobda filologiya yo‘nalishli oliy o‘quv yurti talabalarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va tajriba-sinov ishlari natijalarini amalga oshirishni tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi hamda ulardan uslubiy qo‘llanish taklif etiladi.

Bobning birinchi paragrafi “Pedagogik va tajriba-sinov ishlari natijalarini amalga oshirishni tashkil etish” deb nomlanib, tajriba-sinov ishlari jarayonini ifodalaydi.

Tajriba-sinov jarayonlari ilmiy-uslubiy talablarga muvofiq amalga oshirildi. Tajriba-sinovlar davomida tanlangan oliy o‘quv yurtlarining 2-kurs talabalaridan nazorat va tajriba guruhlarini tuzilib, ular yordamida tajriba-sinovlar o‘tkazildi. Tadqiqotda guruhlardagi ishtirokchilar soni tajriba-sinov boshida 208 tani va oxirida ham shu holatni tashkil etdi (1-jadval):

**1-jadval.**

#### Tajriba-sinov maydonchalarida ishtirok etganlar soni

Tajriba-sinov maydonchalari	Boshlang‘ich bosqich		Oxirgi bosqich	
	Nazorat guruhi	Tajriba-sinov guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba-sinov guruhi
Jizzax davlat pedagogika instituti	34	38	34	38
Samarqand davlat chet tillar instituti	33	35	33	35
Buxoro davlat universiteti	32	36	32	36
JAMI	99	109	99	109


Tajriba-sinov jarayonini tashkil etish tadqiqotning to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: diagnostika va prognozlash, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va yakuniy bosqichlar (2-jadval):

**2-jadval.**

#### Tajriba-sinov jarayoni bosqichlarning tavsifi

№	Tajriba-sinov bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Diagnostik va prognostik bosqich	– pedagogik diagnostika obyektlari aniqlanadi; – muammolar aniqlandi va mavzular shakllantirildi; – eksperimentning maqsadi, ilmiy farazlari va vazifalari aniqlanadi; – tajribani tekshirish dasturini ishlab chiqdi.
2.	Tashkiliy tayyorgarlik bosqich	– tajriba maydonlari va ishtirokchilar tarkibi aniqlandi; – pedagogik jarayonning tavsiflangan tavsifi; – tajriba-sinov ishlarning uslubiy ta’minoti ishlab chiqilgan; – tajriba-sinov tadqiqotlarni tashkiliy ta’minlash ishlab chiqildi.
3.	Amaliy bosqich	– yo‘naltirilgan, bosqichli va nazorat tajribalari o‘tkazildi; – tajriba-sinov tadqiqot guruhlarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi.
4.	Yakuniy bosqich	– tajriba-sinov natijalar uchun algoritmi ishlab chiqish; – natijalarni amalga oshirishni yakunlash bosqichi.

Sinov jarayonida nazorat va tajriba-sinov guruhlardagi talabalar uchun bir xil sharoitlar yaratildi, ular bir xil hajm va murakkablikdagi materiallar bilan ta'minlandi. Tajriba-sinov test-sinov maydonlari sifatida belgilangan oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalish 2-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi. Test 10 ta savoldan iborat bo'lib, talabalarning axborot texnologiyalari va uning tarkibiy qismlari bo'yicha bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Sinovning maqsadi talabalarning berilgan muammoni qay darajada yechishlarini aniqlash yedi. Qabul qilingan ma'lumotlar talabalarga axborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini aniqlaydigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning o'sishini namoyish etishga va tadqiqot natijalarini umumlashtirishga yordam berdi (4-rasm):



**4-rasm. Oliy ta'lim muassasalarining test-sinovlarida ishtiroki**

Tajriba-sinov tadqiqot jarayoni biz taklif qilgan uslubiy yordamni amalga oshirishdan oldin talabalarning bilim darajasini aniqlash maqsadida ikki bosqichda (dastlabki va yakuniy) amalga oshirildi. Yuqorida aytib o'tilganidek, test-sinovlari oliy ta'lim muassasalarining 2-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi.

Tajriba maydoni sifatida belgilangan oliy ta'lim muassasalarining 1-kurs talabalari o'rtasida nazorat-tajriba guruhlarida o'tkazilgan dastlabki test-sinovlari natijalariga ko'ra 96 nafar talaba jalb etilgan bo'lib, shundan 48 nafari tajriba guruhiga, 48 nafari nazorat guruhida ishtirok etishdi. Test natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilar o'rtasida to'g'ri javoblar 35%, noto'g'ri javoblar 65%, nazorat guruhida to'g'ri javoblar 75% va noto'g'ri javoblar 25% tashkil etdi. Talabalar o'rtasida sotsiologiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid javoblarning past foizi asosan ingliz tilidagi noverbal aloqa vositalari, muloqot shakllari, inglizlarning hissiy munosabati, shuningdek, ularning an'analari va marosimlari haqidagi savollarda kuzatildi.

Dastlabki tajriba-sinov metodologiya bo'yicha tajriba maydonlari sifatida belgilangan oliy ta'lim muassasalarining 2-kurs talabalarining nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazilgan test-sinovlari natijalariga ko'ra, test-sinovlarida jami 208

